TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	



“YASHIL IQTISODIYOT”, EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT

Ibragimova Saodat Abdumo‘minovna

TDTU professori;

ORCID [0000-0001-6230-8009]

saodatib@yandex.com

Annotatsiya. Maqolada barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, ekologik madaniyat va “yashil” iqtisodiyotning ahamiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari, istiqbolda ushbu rivojlanish modelini qo‘llash samaradorligi tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish, samarali ekologik siyosatni yuritish va “yashil” o‘sishni kompleks baholashning asosiy bosqichlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” o‘sish, ekologik barqarorlik, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, eco-innovatsiya, yangi rivojlanish modeli, ekologik xavf-xatarlar, ekologik-iqtisodiy indikatorlar, barqaror taraqqiyot maqsadlari, qayta tiklanuvchi energiya.

Abstract. The article examines the main stages of implementing the principles of a green economy in Uzbekistan in the context of sustainable development. It analyzes approaches aimed at ensuring environmental sustainability, highlights the importance and priorities of environmental culture and the green economy, and evaluates the effectiveness of applying this development model in the future. In addition, the paper provides a comprehensive assessment of environmental policy effectiveness and green growth.

Key words: green economy, green growth, environmental sustainability, environmental culture, sustainable development, eco-innovation, new development model, environmental risks, environmental and economic indicators, sustainable development goals, renewable energy.

Аннотация. В статье рассматриваются основные этапы внедрения принципов «зелёной» экономики в Узбекистане, направленные на обеспечение экологической устойчивости. Проанализированы значение и приоритетные направления формирования экологической культуры и «зелёной» экономики, эффективность применения данной модели развития в перспективе, а также проведена комплексная оценка результативности экологической политики и «зелёного» роста в контексте реализации концепции устойчивого развития.

Ключевые слова: «зелёная» экономика, «зелёный» рост, экологическая устойчивость, экологическая культура, устойчивое развитие, экоинновации, новая модель развития, экологические риски, эколого-экономические показатели, цели устойчивого развития, возобновляемая энергия.

KIRISH

Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida barcha sohalar qatori atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muammolarning inson salomatligiga salbiy ta'sirining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar barqaror rivojlanishning muhim kafolati bo'lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e'lon qilinishi zamirida ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda yashil texnologiyalarni keng joriy etish kabi ustuvor maqsadlar mujassam.

Mazkur tashabbus ekologik muammolarga e'tiborni kuchaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ilgari surish hamda aholi ongida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan. Jumladan, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatda “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida mamlakat rivojlanishining ustuvor yondashuvlari” sifatida bir qator muhim vazifalar belgilab berildi.

Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror huquqiy asoslarni mustahkamlash borasidagi ishlarning mantiqiy davomi bo‘lib,



yurtdoshlarimizda ekologik madaniyatni yanada yuksaltirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Davlat dasturiga ko'ra, aholini atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonlariga faol jalb etish, ekologik qonunchilikni takomillashtirish hamda yosh avlodga ekologik tarbiya berish bo'yicha keng qamrovli tadbirlar rejalashtirilgan.

Ekologik xavfsizlik nafaqat bugungi sog'lig'imiz, balki kelajak avlod farovonligi uchun ham nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu bois, fuqarolarni atrof-muhitni muhofaza qilishga faol jalb etish va ularning ekologik ongini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir [1].

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, tarmoq strategiyalari va rejalaridan iborat bir qator normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilingani davlatning soha istiqboliga e'tibori yuqori ekanligidan dalolat beradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" tasdiqlangan. Mazkur hujjatda resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda ekologik xavfsizlikni mustahkamlash kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-noyabrdagi "Respublika hududlarida o'rmonzorlar, shuningdek, Orol dengizi va Orolbo'yi hududlarida 'Yashil qoplamalar' barpo etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 745-son qarori ekologik muammolarni yumshatish va iqlimga moslashuv choralari kuchaytirishga qaratilgan muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu qarorda "yashil" transportni rivojlantirish, "yashil" kreditlash va venchur moliyalashtirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali ekologik barqarorlikka erishish vazifalari belgilangan.

Mavzuga doir ilmiy adabiyotlarda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi barqaror rivojlanishning zamonaviy modeli sifatida keng yoritiladi. Xususan, UNEP hamda OECD kabi xalqaro tashkilotlar yashil iqtisodiyotni ekologik xavflarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiluvchi rivojlanish yo'li sifatida talqin qiladi. Jahon banki va xalqaro moliya institutlari hisobotlarida esa "yashil" transformatsiyaning investitsiya oqimlari, innovatsiyalar va ish o'rinlari yaratishdagi iqtisodiy samaralari alohida ko'rsatib o'tiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan. Jumladan, S. Ibragimova va F. Abdulazizovlarning (2025) "Новый Узбекистан и основные направления развития 'зелёной' экономики" nomli ilmiy maqolasida tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish, ekologik texnologiyalarni joriy etish hamda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish masalalari tahlil qilingan. Mualliflar ekologik modernizatsiyani iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshiruvchi omil sifatida baholab, yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida davlat siyosati, soliq va kredit imtiyozlari, ekologik standartlar, "yashil" moliyalashtirish instrumentlari (yashil obligatsiyalar, ESG kreditlash, karbon bozor mexanizmlari) muhim rol o'ynashi ko'rsatib berilgan. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks yondashuvlar amaliy natija berishi ilmiy manbalarda asoslangan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish bo'yicha huquqiy va institutsional asoslar shakllanib bormoqda. Biroq mavjud ilmiy ishlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish samaradorligini ekologik-iqtisodiy indikatorlar asosida kompleks baholash, ekologik madaniyatni shakllantirish mexanizmlari hamda "yashil" o'sishning hududiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish masalalari nisbatan kam yoritilgan. Shu bois, ushbu yo'nalishda qo'shimcha tadqiqotlar olib borish va ilmiy-amaliy yondashuvlarni kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy tahlil qilish, ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, tahlil qilish va kuzatish, ilg'or tajribalarni o'rganish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanilib, induktiv va deduktiv xulosalash, statistik hamda iqtisodiy tahlil usullari asosida tadqiqot natijalari shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlarining profilaktikasi, ularni aniqlash hamda oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish,



davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishishni ta'minlash maqsadida 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyalari ishlab chiqildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019–2028-yillar davrida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish dasturi hamda 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjatlar atrof-muhitning joriy holatini tahlil qilish, global va mintaqaviy ekologik muammolarni aniqlash, yangi ekologik xavf-xatarlarning oldini olish va aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

2022–2030-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasi kesimida qabul qilingan "yo'l xaritalari"da belgilangan vazifalar yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik standartlarni takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Elektr energetikasi sohasida 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalari hajmini sezilarli darajada oshirish maqsad qilingan bo'lib, bunda energiya ishlab chiqarishdagi "yashil" quvvatlar ulushini kamida 25–30 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, quyosh va shamol energetikasidan olinadigan umumiy quvvatni 12 GVt gacha yetkazish ko'zda tutilmoqda (7 GVt quyosh, 5 GVt shamol). 2040-yilga borib O'zbekiston toza energiya manbalari bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi davlatlardan biriga aylanishi maqsad qilingan.

2. Suv resurslarini boshqarish va qishloq xo'jaligida tejamkor texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. 2030-yilga borib tomchilatib sug'orish va boshqa tejamkor sug'orish tizimlari joriy etilgan maydonlar hajmi jami sug'oriladigan yerlarning 50 foizdan ortig'ini tashkil etishi rejalashtirilgan. Suv sarfini qisqartirish evaziga yiliga 3–4 mlrd m³ suvni tejash, kimyoviy o'g'itlardan foydalanishni bosqichma-bosqich kamaytirish, organik dehqonchilik tamoyillarini kengaytirish hamda sertifikatlangan ekologik mahsulotlar eksportini oshirish bo'yicha aniq "yo'l xaritalari" ishlab chiqilgan.

3. Chiqindilarni qayta ishlash va ularni ekologik xavfsiz utilitatsiya qilish masalasi ham kelgusi 10 yillikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. 2025-yil yakuniga qadar maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 40 foizdan oshirish, 2030-yilgacha esa 60 foizga yetkazish belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun davlat-xususiy sheriklik doirasida chiqindilarni saralash va qayta ishlash klasterlarini tashkil etish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish hamda chiqindidan energiya ishlab chiqarish (waste-to-energy) loyihalarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

4. Iqtisodiy o'sishni dekarbonizatsiya qilish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha O'zbekiston Parij iqlim kelishuvi doirasidagi majburiyatlaridan kelib chiqib, 2030-yilgacha uglerod chiqindilarini kamida 35 foizga qisqartirishni rejalashtirgan. Shuningdek, kelgusida iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida raqamlashtirish asosida uglerod chiqindilarini doimiy monitoring qilib borish maqsad qilingan.

5. Xalqaro hamkorlik va yashil moliyalashtirish masalasi ham hukumat e'tibor markazida bo'lib, konsepsiyaga ko'ra, 2030-yilgacha "yashil iqtisodiyot"ning barcha yo'nalishlarini rivojlantirish uchun kamida 8–10 mlrd AQSH dollari miqdorida investitsiya talab qilinadi. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, BMTning tegishli jamg'armalari hamda BAA kabi xorijiy davlatlar bilan ko'plab loyihalar bo'yicha kelishuvlarga erishilgani investorlar uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonda "yashil" obligatsiyalar chiqarish, "yashil" kreditlash va atrof-muhitni muhofaza qilish jamg'armalarini shakllantirish orqali mahalliy mablag'larni jalb etish rejalashtirilgan [2].

Atrof-muhitning joriy holati tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblangan bu konsepsiya ko'rsatib o'tilgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi hamda davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Qarorga muvofiq, bu boradagi ishlar natijasida 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 3,3 million tarbiyalanuvchisida ekologik madaniyatni shakllantirish, 4,2 million maktab o'quvchisi, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimi tashkilotlarining 400 ming o'quvchisi hamda 1,9 million talabaning ekologik ta'lim-tarbiyasini mustahkamlash, ularning ekologik madaniyatini yuksaltirish maqsad qilingan [3].

Ekologik madaniyat — odamlarning atrof-muhit bilan munosabatidagi o'zgaruvchan muvozanatni ekologik madaniy xulq-atvor orqali saqlab turish uchun jamiyatga ommaviy joriy etiladigan umummadaniy ekologik bilimlar, qadriyatli mo'ljallar, xulq-atvor me'yorlari va qoidalari majmuidir. Ekologik ma'rifat esa shaxsni ekologik qonuniyatlarga muvofiq ekologik ongli va madaniyatli shaxs sifatida kamol topishini ta'minlovchi ekologik ta'lim va tarbiyani o'z ichiga olgan yaxlit jarayon sifatida izohlanadi. Ekologik ta'limni jamiyatda tarixan shakllangan ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o'tkazilishi va o'zlashtirilishi, ekologik tarbiyani esa ekologik



qoidalar hamda yo'lyo'riqlar vositasida ekologik axloq va xulq-atvor fazilatlarining egallanishi sifatida qarash mumkin [5].

“Yashil” iqtisodiyot va ekologik madaniyatning asosiy yo'nalishlari:

- ekologik madaniyatni shakllantirish;
- barqaror rivojlanish;
- tabiiy resurslarni tejash;
- “yashil kelajak”;
- ekologik toza ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash orqali kelajak avlod uchun toza atrof-muhitni asrab qolish.

Ushbu yondashuv iqtisodiy o'sish va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qilib, ekologik xavfsiz va barqaror kelajakni barpo etishga yo'naltirilgan [6].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan “Barqaror rivojlanish” konsepsiyasi dunyo mamlakatlarining ustuvor maqsadiga aylangan bo'lib, bunda yuqori iqtisodiy o'sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg'unlashmoqda. Bu esa jahon iqtisodiyotining barcha yo'nalishlari — qishloq xo'jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika va qurilish sohalari “yashil” tamoyillar asosida rivojlanishi muhimligini anglatadi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish hamda O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash, resurs tejashni kengaytirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Unga ko'ra, iqtisodiyotni “yashil”lashtirishga dunyo YAIMning 2 foizini investitsiya qilish 2011–2050-yillar davomida hozirgi va kelajakdagi uzoq muddatli o'sish sur'atlarini ta'minlaydi hamda iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va ekotizim xizmatlarining yo'qolishi bilan bog'liq xavflarning oldini olishga xizmat qiladi [7].

Barqaror taraqqiyot doimiy miqdoriy o'sish emas, balki ekologik va ijtimoiy xususiyatlar inobatga olingan holda “nizosiz” rivojlanishni anglatadi. Bu jarayonda inklyuziv barqaror o'sish konsepsiyasining asosiy qoidalar — iqtisodiyot o'sishi va ijtimoiy muammolarni hal etish o'rtasidagi kuchli bog'liqlik, daromadlarni adolatli taqsimlash, aholining ehtiyojmand qatlamlariga alohida e'tibor qaratish orqali ifodalanadi. “Yashil” iqtisodiyot esa energiya va resurs tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish, sof energiyadan foydalanadigan transport, muqobil energiya manbalari, organik qishloq xo'jaligi, ekodevelopment va ilg'or logistika tamoyillariga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasida barqaror taraqqiyot maqsadlari iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy prinsiplaridan biri bo'lib, innovatsiyaga asoslangan bozor mexanizmlari tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy siyosat bilan uyg'unlashmoqda.

Atrofdagi tabiiy muhitni monitoring qilish tizimini modernizatsiyalashga ustuvor ahamiyat berilmoqda, bu esa mavjud muammolarni kompleks hal qilish imkonini yaratadi. Qattiq maishiy chiqindilarni davlat-xususiy sheriklik asosida utilizatsiya qilish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etgan holda, chiqindilarni kompleks boshqarish klasterlari shakllantirilmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning iqlim va geografik xususiyatlari, noyob ekotizimlari, energiya sarfini kamaytirish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha innovatsion siyosat ustuvorliklari bilan izohlanadi [9].

BMT (Atrof-muhit bo'yicha dastur — UNEP, Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiya — ESKATO va boshqalar), Global “yashil” o'sish instituti (Global Green Growth Institute — GGGI) kabi xalqaro tashkilotlar “yashil o'sish” strategiyasini ilgari surishda faol ishtirok etmoqda. Uzoq muddatli istiqbolda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish modelining samaradorligi energetika, chiqindilarni utilizatsiya qilish, “yashil” texnologiyalarni joriy etish kabi sektorlarda erishiladigan natijalar bilan baholanadi [10].

“Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning ekologik-iqtisodiy indikatorlarini tahlil qilish va hisob-kitob qilish katta ahamiyatga ega. Modelning samaradorligi “yashil iqtisodiyot”ga o'tishni ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari natijadorligi hamda u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik oqibatlar bilan izohlanadi. Istiqbolda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish modelini qo'llash samaradorligi energetika, chiqindilarni utilizatsiya qilish, “yashil” texnologiyalar, “yashil” transport, “yashil” qurilish va suv resurslarini oqilona boshqarish kabi yo'nalishlar orqali baholanadi [11].

Ushbu sharoitda ekologik innovatsiyalarga e'tiborni kuchaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga yuqori ekologik tahdid mavjud hududlarda ekotizimni kompleks va lokal qayta tiklash, ekologik monitoring va prognozlash samaradorligini oshirish, shuningdek, “ko'k” investitsiyalarni jalb qilish va iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha iqtisodiy mexanizmlar yaratish masalalari dolzarb hisoblanadi.

O'zbekistonning “Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik” (P4G) tashabbusi ham so'nggi yillarda ilgari surilgan yirik xalqaro loyihalardan biri bo'lib, “yashil rivojlanish” yo'lini tanlagan mamlakatlar va shaharlar uchun hamkorlik platformasi vazifasini bajaradi. Mazkur platforma doirasida ishtirokchilar “yashil iqtisodiyot”ga o'tishga yordam beradigan innovatsion yechimlar yaratish bo'yicha hamkorlik qiladi. “P4G” institutsionallashtirilgan tuzilma sifatida nufuzli xalqaro birlashmalar va moliyaviy institutlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Ushbu imkoniyatlar O'zbekiston uchun “yashil iqtisodiyot” strategiyasini amalga oshirishda zarur



investitsiyalarni jalb etish, aholi turmush tarzini yaxshilash, hayot sifatini oshirish, shaharlarning yashash uchun qulayligini kuchaytirish hamda mintaqada ekologik muvozanatni tiklashga xizmat qilishi kutilmoqda [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning ekologik xavfsizlik sohasida olib borayotgan siyosati respublika taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib, tabiatga nisbatan bo'layotgan antropogen va texnogen ta'sirlar sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nafaqat respublikada, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida ekologik vaziyatni yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Prezidentimiz tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ilgari surilgan konstruktiv tashabbuslar nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqa davlatlarining ekologik xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, global tusdagi ekologik muammolarni bartaraf etish, iqlim o'zgarishlarining oldini olish hamda unga moslashish yo'lidagi yechimlarni belgilash bilan birga, mintaqa davlatlari aholisi uchun qulay atrof-muhitni ta'minlashga xizmat qiladi. Qaror ijrosi umumxalq harakati sifatida butun jamiyatda, jumladan, mamlakatimiz aholisida ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga qaratilgan muhim huquqiy asosdir. Bu esa har birimiz kelajagimiz uchun, yashil va sog'lom hayot uchun ekologik madaniyatni umumxalq qadriyatiga aylantirishga kirishishimiz, shu yo'l bilan kelajak avlodlarga barqaror, xavfsiz va farovon hayot qurish zaruratini ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida O'zbekistonning innovatsion, ekologik yo'naltirilgan rivojlanish modelining shakllari va mexanizmlarini rivojlantirish tabiatning alohida elementlarini muhofaza qilishdan ekologik tizimlarni muhofaza qilishga o'tishni, inson yashaydigan muhitning optimal parametrlarini kafolatlashni hamda iqtisodiyot sohasini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida rivojlantirish mexanizmlari bilan o'zaro aloqalarni uyg'unlashtirishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2019 — 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish Strategiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son qarori.
2. Ibragimova S. Green economy concept and features its formation INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION, VOLUME 4, ISSUE 29, 2025, 99-105p.
3. Ibragimova S. New Uzbekistan and main directions development of a green economy. World Bulletin of Management and Law (WBML) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Volume -43, February-2025, 52-55p.
4. Ibragimova S. Problems and prospects of the transition to a "green" economy in Uzbekistan. "Universal Journal of Law, Finance And Applied Sciences" February 2025, 54-59 p.
5. Ибрагимов С., Абдулазизов Ф. НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ // Talqin va tadqiqotlar. — 2025. — №. 1 (59).
6. Ibragimova S. Priority areas of the green economy in sustainable economic development. American Journal of Business Manajement, Economics and Banking Issn (E): 2832-8078 volume 22., march-2024, p 112-116.
7. ХУСАИНОВ Р. Р. ВОЗОБНОВЛЯЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭНЕРГИИ КАК ОСНОВА ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ // SCIENCE. — 2025. — Т. 4. — №. S1-2. — С. 94-102.
8. Husainov R., Ibragimova S. Financial literacy in uzbekistan // Interpretation and researches. — 2024. — Т. 2. — С. 24.
9. Abdumuminovna, I. S. (2023). THE MAIN WAYS TO ENSURE THE ECONOMIC SECURITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY. Open Access Repository, 9(1), 29-33.
10. Abdumuminovna, I. S. (2022). Management of innovative development socioeconomic systems. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(4), 62-66.
11. Abdumuminovna, I. S. (2022). Features of modern innovative development and formation of innovative system. Asian Journal of Research in Banking and Finance, 12(3), 14-17.
12. Ibragimova, S., & Bakhodirova, K. (2023). Formation of investment activities of energy enterprises. In E3S Web of Conferences (Vol. 461, p. 01074). EDP Sciences.
13. Ibragimova S. A., Shagaipova G. Z. MODERN PATTERNS OF DEVELOPMENT OF CORPORATE STRUCTURES IN UZBEKISTAN // Экономика и Финансы (Украина). — 2019. — №. 3. — С. 45-50.
14. Ibragimova S. A., Shagaipova G. Z. The main concepts of the development of the national economy based on innovative transformations // XXXII International Plekhanov Readings. Materials of the international scientific-practical conference. "GV Plekhanov Russian University of Economics."—Moscow, Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Education "PRUE GV Plekhanov. — 2019. — С. 234-235.
15. Ibragimova S. A. Analysis of models and methodological aspects of assessing the level of innovative development // Magazine" BIZNES-EXPERT. — 2019. — С. 101-104.
16. Ибрагимов С. А., Хусаинов Р. Р. Глобализация жароёнда миллий иқтисодиётни инновацион ривожлантириш йўналишлари ва истиқболлари // Экономика и финансы (Узбекистан). — 2021. — №. 3 (139). — С. 62-67.
17. Ибрагимов С., Абдулазизов Ф. Развитие корпоративного управления в Узбекистане на основе современных мировых стандартов // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. — 2025. — Т. 3. — №. 1.
18. Ибрагимов С. РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА МИРОВОМ РЫНКЕ // Interpretation and researches. — 2025. — №. 5 (51).



19. Ибрагимова С., Садуллаева С. INNOVATIVE METHODS IN PRODUCTION QUALITY MANAGEMENT // Interpretation and researches. – 2025. – №. 6 (52).
20. Ibragimova S., Abdulazizov F. СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ МЕХАНИЗМА КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ // Interpretation and researches. – 2025. – №. 1 (47).
21. Ибрагимова С.А. Перспективные направления “зелёной” экономики в Узбекистане. // Журнал Бизнес эксперт, 2024, № 1-2, 90-95



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>